

O'ZBEKISTON VA POKISTON O'RTASIDAGI HAMKORLIK ALOQALARIDA AKADEMIK DIPLOMATIYANING O'RNI

Rashidova Aziza Aminboyevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tayanch doktoranti

raziza7757.14@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqola O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi hamkorlik aloqalarida akademik diplomatiyaning ta'siri, ikki davlat o'rtasida Oliy ta'lim va tadqiqot muassasalari o'rtasidagi xalqaro hamkorlik, akademik almashinuvlar, professor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvini yo'lga qo'yilishi, ilmiy aloqalar orqali davlatlararo munosabatlarni rivojlantirishni yoritishga bag'ishlanadi. Shu bilan birga kelgusida ushbu aloqalarning yanada rivojlanishi uchun istiqbolli loyihalar va rejalar bo'yicha ham mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Pokiston, Oliy ta'lim, akademik diplomatiya, akademik almashinuv, davlatlararo munosabat.

РОЛЬ АКАДЕМИЧЕСКОЙ ДИПЛОМАТИИ В СОТРУДНИЧЕСТВЕ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ПАКИСТАНОМ

Рашидова Азиза Аминбоевна

докторант Национального педагогического университета Узбекистана имени

Низами

Аннотация. Данная статья посвящена освещению влияния академической дипломатии на сотрудничество между Узбекистаном и Пакистаном, установлению международного сотрудничества между высшими учебными и научно-исследовательскими учреждениями двух стран, академическим обменам, обмену профессорами, преподавателями и студентами, а также развитию межгосударственных отношений посредством научных связей. Одновременно

рассматриваются перспективные проекты и планы дальнейшего развития этих отношений в будущем.

***Ключевые слова:** Узбекистан, Пакистан, высшее образование, академическая дипломатия, академический обмен, межгосударственные отношения.*

THE ROLE OF ACADEMIC DIPLOMACY IN COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND PAKISTAN

Rashidova Aziza Aminboyevna

*Second-year full-time postgraduate student
at Nizami National University of Uzbekistan*

***Annotation.** This article is devoted to highlighting the impact of academic diplomacy in cooperation between Uzbekistan and Pakistan, the establishment of international cooperation between higher education and research institutions of the two countries, academic exchanges, exchange of professors, teachers and students, and the development of interstate relations through scientific ties. At the same time, promising projects and plans for the further development of these relations in the future are also considered.*

***Keywords:** Uzbekistan, Pakistan, Higher education, academic diplomacy, academic exchange, interstate relations.*

Kirish. XXI asr dunyo global transformatsiyalar davriga qadam qo'ydi. Globalizatsiya sharoitida davlatlar o'rtasidagi munosabatlar nafaqat siyosiy va iqtisodiy omillar bilan, balki ilm-fan, ta'lim va madaniy aloqalar orqali ham rivojlanmoqda. Xususan, so'nggi o'n yilliklarda xalqaro munosabatlarda **akademik diplomatiya** muhim ahamiyat kasb etmoqda. Akademik diplomatiya davlatlar o'rtasidagi ilmiy va ta'lim hamkorligini rivojlantirish orqali o'zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Pokiston bilan hamkorligida akademik hamkorlik mintaqaviy bog'liqlikni mustahkamlashning eng barqaror yo'llaridan biri

sifatida qaraydi. Ayniqsa, O'zbekiston Prezidenti tomonidan e'lon qilingan uchunchi Renessans tashabbusi boshqa mintaqa davlatlari bilan birlashish va integratsiya qilishda samarali natijalar berishi kutilmoqda[1]. O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi hamkorlik Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo o'rtasidagi strategik aloqalar tizimida muhim o'rin egallaydi. Ikki davlatni umumiy tarixiy ildizlar, madaniy yaqinlik va iqtisodiy manfaatlar birlashtiradi. Bizga buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston" asarida Hindiston sivilizatsiyasi, madaniyati va ilmiy an'analarini qiyosiy taqqoslab bergan. Bu esa Markaziy Osiyo va Hindiston o'rtasidagi ilmiy aloqalarning qadimiyligini ko'rsatadi.

Beruniy asarda hindlarda astronomiya mashhurligi sababi ularda diniy ishlarni shu fanga bog'laydi va hindlardan astronomiyani arab xalifaligiga kirib kelishini tavsiflaydi. "Hindistondan xalifa Al-Mansur huzuriga 771-773 yillarda kelgan elchilar tarkibida Pandit Manka yoki Kanka ismli olim bo'lib, o'zi bilan ichida jadvallari bo'lgan astronomiyaga oid kitob keltirgan. Uni xalifa olimlari Al-Fazoriy va Ya'qub ibn Toriq arab tiliga tarjima qilib qayta ishlagan va "Kitob as-Sindhind" deb ataganlar.[2,470]

Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasida akademik hamkorlik Temuriylar davrida, xususan Temuriy xonadoni davomchisi Bobur va Boburiylar davrida davom etadi. Boburiy hukmdori Anrangzeb Buxoro xonligi bilan do'stona munosabatda bo'ladi. Buxoro xoni Abdulazizxon tomonidan yuborilgan elchi bilan uzoq suhbatda Samarqandda ilm-fan, Ulug'bek rasadxonasini faoliyati va O'rta Osiyoda etishtiriladigan mevalar xususida suhbatlashadi.[3,79] Ushbu ma'lumotlardan shuni aytish mumkinki, akademik aloqalarimiz tarixiy ildizlari chuqur va mustahkamligi bilan tahsinga sazovor. Mamlakatimiz mustaqilligini qo'lga kiritgach, Pokiston bilan o'zaro manfaatli aloqalarimiz yo'lga qo'yildi. Ikki davlat o'rtasida akademik hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishni huquqiy asosi 1992 yil 27 iyunda imzolandi.[4,251]. O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi akademik hamkorlik ikki mamlakat universitetlari, ilmiy markazlari va tadqiqot institutlari o'rtasida amalga oshirilayotgan qo'shma loyihalar orqali rivojlanmoqda. Bu jarayon mintaqaviy integratsiyani kuchaytirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Amerikalik siyosatshunos Jozef Nye "yumshoq kuch" (soft power) nazariyasida ta'lim va ilmiy hamkorlik davlatning xalqaro nufuzini oshirishda muhim

vosita ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, akademik almashinuv dasturlari davlatlar o'rtasida ishonch muhitini yaratadi.[5,192]

Akademik diplomatiya davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishda quyidagi jihatlar orqali muhim rol o'ynaydi:

- ilmiy bilimlar almashinuvini kuchaytirish;
- innovatsion tadqiqotlarni rivojlantirish;
- yosh mutaxassislarni tayyorlash;
- xalqaro ilmiy tarmoqlarni kengaytirish.

2025 yil 1 noyabrda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan YUNESKO bosh konferensiyasining 43-sessiyasi doirasida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiya vaziri Q.Sharipov va Pokiston islom Respublikasi federal ta'lim va kasbiy tayyorgarlik bo'yicha davlat vaziri Vajixa Qamar xonim bilan bo'lgan uchrashuvda ilmiy tadqiqotlar, talaba va professor-o'qituvchilar almashinuvi, kasbiy ta'lim yo'nalishlarida hamkorlik muhokama qilinib, tibbiyot, to'qimachilik, sanoat sohalarida hamkorlikni yo'lga qo'yish, masofaviy ta'lim loyihalarini amalga oshirish, yoshlar bandligini ta'minlash va mehnat migratsiyasi sohasida tajriba almashish masalalarini muhokama qildilar. [6]

O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini yanada kuchaytirishga e'tibor qaratilgan. 2026 yil 5-6 fevral kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan Pokiston islom Respublikasida bo'ldi. Bu tashrif davomida strategik hamkorlik kengashining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining birinchi yig'ilishidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Pokiston islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif Qo'shma deklaratsiyani imzoladilar. Bundan tashqari, etakchilar huzurida quyidagi ikki tomonlama hujjatlarni almashish marosimi bo'lib o'tdi.[7]

- Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida 2026 – 2028-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi;
- Madaniyat sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;
- Buyuk Boburiylar sulolasining ilmiy ma'rifiy, madaniy va me'moriy merosini asrash, o'rganish hamda keng targ'ib qilish to'g'risida bitim;

– Sport sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

Ikki davlat birgalikda madaniyat haftaliklari va kinofestivallarni tashkil etish hamda buyuk mutafakkirlarning ilmiy-ma’rifiy merosini o‘rganish va ommalashtirish rejalashtirilmogda. Islomobod ko‘chalaridan biriga Toshkent nomi berildi. Prezidentimiz, o‘z navbatida, Pokiston poytaxtida buyuk davlat arbobi va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi bog‘ni bunyod etish to‘g‘risida qaror qabul qilinganini e’lon qildi. Bu Pokiston xalqiga mamlakat mustaqilligi bayrami nishonlanishi arafasida munosib tuhfa bo‘ladi. Mamlakatimiz etakchisiga Pokiston Milliy fan va texnologiyalar universitetining faxriy doktori va professori ilmiy unvonlari berildi.[8] .

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ikki davlat o‘rtasidagi akademik hamkorlik aloqlari tarixiy ildizlari mustahkamdir. Bugungi kunda bu aloqalarni rivojlantirish nafaqat ikki davlat o‘rtasida, balki Markaziy va janubiy osiyo mintaqalari manfaatlariga to‘liq mos keladi. Shu sabali, akademik insitutlar mintaqaviy strategiyalarning markazida bo‘lishi va ikki davlat tomonidan har tomonlama qo‘llab -quvvatlanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Rayhon Beruniy. *Hindiston II*. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2022. – 470 b.
2. Mehreen Gul. *Rejuvenating Regionalism into Academic Cooperation: Central & South Asian Connectivity*. In: *His Excellency Shavkat Mirziyoyev – A Visionary Statesman*. Pakistan, 2021. – 48 p.
3. Nizomiddinov I.F. *XVI–XVIII asrlarda O‘rta Osiyo – Hindiston munosabatlari*. Toshkent: Fan, 1966. – 79 b.
4. Nye J. *Soft Power: The Means to Success in World Politics*. New York: Public Affairs, 2004. – 192 p.
5. O‘zbekiston Milliy arxivi. Fond M-37, 1-ro‘yxat, 5101 yig‘majild. – 251 b.
6. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. URL: <https://t.me/eduuz>
7. Xalq so‘zi gazetasi. 2026 yil 6-fevral, №25.
8. Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2026 yil 5-fevral, №24.